

“Talabalikka bag‘ishlov – 2022”

Joriy yilning 27-oktyabr sanasida Toshkent shahridagi Turin Politexnika universitetning 2022-2023 o‘quv yiliga qabul qilingan 1-bosqich talabalari uchun “Talabalikka bag‘ishlov” nomli va “21-oktyabr O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun” munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir o‘tkazildi.







Dastavval, ma'naviy-ma'rifiy tadbirni O'zbekiston Respublikasi madhiyasi bilan ochib berildi. So'ng, universitet rektori Inoyatxodjaev Jamshid Shuhratullayevich so'zga chiqib, bu yilgi o'quv yiliga qabul qilingan talaba-yoshlarga ko'plab ezgu-tilaklar bildirib, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlarida universitet tomonidan kerakli sharoitlar yaratib berilishini ta'kidladi.



Har yili o'tkaziladigan an'anaviy tadbir davomida, talabalar o'z qasamyodlarini qabul qilar ekan, *butun faoliyatlarini ona diyorimiz va uning buyuk kelajagiga bahshida etishga, Vatan taraqqiyoti yo'lida astoydil harakat qilib yuqori malakali mutaxassis bo'lishga, ota-ona oldidagi farzandlik burchini unutmashlik, uni to'la ado etish uchun bor bilimlarini bag'ishlashga, tanlangan mutaxassislik bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarni muntazam ravishda o'zlashtirishga, o'quv rejasi va dasturlarda belgilangan mashg'ulotlarni o'z muddatida bajarish va o'quv mashg'ulotlarida doimiy ravishda qatnashishga, olingan kasbiy bilimlardan foydalanib, muxandislik kasbini puxta egallash va mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo'shish, universitetning ichki qoidalarig rioya qilishni o'zlarining muqaddas burchi deb hisoblash kabi so'zlar bilan tantanali ravishda qasamyod qildilar.*



Shundan so'ng, 2022-2023 o'quv yili kirish imtihonlarida eng yuqori ball to'plagan talabalarimiz Madaminova Kamola (Mashinasozlik texnologiyasi), Abduganiyev Abdulaziz (axborot texnologiyalari), Shakirov Temur (Sanoatda qurilish xo'jaligi), Kurbanova Nigora (Menejment)larga kafedra mudirlari tomonidan yo'nalish ramzlarini (atributlari) tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.





Talabalarni qutlash maqsadida universitet "Musiqqa to'garagi" qatnashchisi Shohruh Hasanov va uning rahbari Mansur Saparbaev tomonidan musiqiy chiqishlar taqdim etilib, talabalarimiz

Sarvinoz Yo'ldasheva va Xayitov Narzullobek tomonidan she'rlar o'qildi.





0'zbek tilimiz, adabiyotini, madaniyatimiz, san'atimizni go'zalligi va nafosatini talaba-yoshlarimizga oz bo'lsada anglatish maqsadida, elimiz suygan ko'plab obrazlar yaratgan,

bir qancha film dublyajlarida qatnashgan, Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati, O'zbekiston Xalq artisti Tesha Muminov tashrif buyurdi. Tesha Muminov o'zbek tilining kelib chiqish tarixi, ajdodlarimiz, buyuk adiblaru-shoirlarimiz ijodi to'g'risida so'z yuritdi.



Ma'naviy-ma'rifiy tadbirda o'zi erishgan yutuqlari, universitet ta'lim tizimi, yaratilgan sharoitlar, yaqin ikki yil mobaynida amalga oshirilgan loyihalarni ko'rsatish va talabalarga motivatsiya bo'lish maqsadida faol va iqtidorli, na'munali, bir qator tanlovlar g'olibi, o'zining turli loyihalari bilan dunyo kezman universitet 3-bosqich talabasi Urunov Asadbek tomonidan juda ma'lumotlarga boy taqdimot namoyish etildi.

Shu o'rinda, barcha talabalarga qasamyodlariga sodiq qolgan holda, yurtimiz dovrug'ini balandlarga yuksaltirib, kelgusida porloq va yorqin kelajakning munosib farzandlari bo'lishlariga tilakdoshmiz.